



**O‘zbekiston
Respublikasi
Korrupsiyaga qarshi
kurashish agentligi**



**O‘zbekiston
Respublikasi
Huquqni muhofaza
qilish akademiyasi**



**O‘zbekiston
Respublikasi
Adliya vazirligi**

**Manfaatlar to‘qnashuvi holatlarga oid muammoli savol va vaziyatlar
(kazuslar) hamda ularni bartaraf etish choralar bo‘yicha**

USLUBIY TAVSIYALAR

TASHKENT–2024 yil

Manfaatlar to‘qnashuvi holatlarga oid muammoli savol va vaziyatlar (kazuslar) hamda ularni bartaraf etish choralar bo‘yicha

USLUBIY TAVSIYALAR

1. Ushbu Qonunning 1-moddasida Qonun tadbiq etiladigan sub’ektlar doirasi belgilangan. Bunda, 1-moddaning 2-qismida, shuningdek 3-qism ikkinchi va uchinchi xatboshilarida belgilangan qoidalar qaysi sub’ektlarga nisbatan qo‘llaniladi?

davlat organlari – davlat hokimiyat vakolatlariga ega bo‘lgan tashkiliy jihatdan alohida tuzilma bo‘lib, tashkiliy huquqiy shakli ta’sis hujjatlarida yoki qonunchilik hujjatlarida davlat organi sifatida belgilangan yuridik shaxslar;

Misol uchun:

O‘zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi oliy **davlat vakillik organi** bo‘lib, qonun chiqaruvchi hokimiyatni amalga oshiradi (*Konstitutsiyaning 91-moddasi*);

Vazirlar Mahkamasi – O‘zbekiston Respublikasi Hukumati **ijro etuvchi hokimiyatning oliy organi** (*“O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi to‘g‘risida”gi Qonunning 3-moddasi*);

mahalliy davlat hokimiyati organlari – Viloyatlar, tumanlar va shaharlarda (tumanga bo‘ysunadigan shaharlardan tashqari) xalq deputatlari Kengashlari **davlat hokimiyati vakillik organlaridir** (*Konstitutsiyaning 120-moddasi*). Tegishli hududdagi **ijro etuvchi hokimiyatga** viloyat, tuman va shahar hokimi boshchilik qiladi (*Konstitutsiyaning 121-moddasi*);

O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi madaniy faoliyat sohasidagi davlat siyosatini amalga oshiradigan vakolatli **respublika ijro etuvchi hokimiyat organi** hisoblanadi (*Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 7 sentabrdagi 558-son qarori bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi to‘g‘risidagi nizom*)

davlat muassasalari – qonunchilikka muvofiq, boshqaruv, ijtimoiy-madaniy yoki boshqa notijorat tuzdagi vazifalarni amalga oshirish uchun davlat organi yoki tashkiloti tomonidan tashkil etilgan hamda to‘liq yoxud qisman u tomonidan moliyalashtiriladigan yuridik shaxslar;

Misol uchun:

Vazirlar Mahkamasining “**Oliy ta’lim tashkilotlari rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida**” 2024 yil 11 iyuldagi 415-son qarorida O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy ta’lim tizimi kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti **davlat muassasasi** hisoblanadi;

Vazirlar Mahkamasining “**Sabzavot, poliz ekinlari va kartoshkachilik ilmiy-tadqiqot instituti faoliyatini yanada takomillashtirish to‘g‘risida**” 2023 yil 29 dekabrda 699-sonli qaroriga muvofiq Zomin ilmiy-tajriba stansiyasi yuridik shaxs maqomiga ega **davlat muassasasi** hisoblanadi.

davlat unitar korxonalari – davlat mulki negizida tashkil etilgan va operativ boshqaruv huquqiga asoslangan tijorat tashkilotlari;

davlat maqsadli jamg‘armalari – mablag‘lari soliqlar, majburiy to‘lovlar va jarimalar, homiylik mablag‘lari hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining va Vazirlar Mahkamasining qarorlari bilan belgilangan boshqa daromadlardan, shuningdek budjet transfertlari va subsidiyalaridan shakllantiriladigan, davlat funksiyalarini amalga oshirish uchun O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori bilan yuridik shaxs shaklida yoki yuridik shaxs tashkil etmasdan, shu jumladan vazirliklar va idoralar huzurida tashkil etiladigan jamg‘armalar;

ustav fondida (ustav kapitalida) davlat ulushi 50 foiz miqdorda va undan ortiq bo‘lgan aksiyadorlik jamiyatlari, ya’ni ustav fondi (ustav kapitali) aksiyadorlarning aksiyadorlik jamiyatiga nisbatan huquqlarini tasdiqlovchi muayyan miqdordagi aksiyalarga taqsimlangan tijorat tashkilotlari nazarda tutiladi.

Bunda, ushbu Qonun o‘z ustav fondida (ustav kapitalida) davlat organlarining yoki boshqa tashkilotlarning ulushi jami 50 foiz miqdorda va undan ortiq bo‘lgan yuridik shaxslarga to‘liq tadbiiq etiladi, o‘z ustav fondida (ustav kapitalida) davlat organlarining yoki boshqa tashkilotlarning ulushi jami 50 foiz miqdorda va undan ortiq bo‘lgan yuridik shaxslar (ta’sischiligida tashkil etilgan) ulushi jami 50 foiz miqdorda

va undan ortiq bo'lgan yuridik shaxslarga nisbatan faqat ularning davlat xaridlari sohasidagi munosabatlariga tatbiq etiladi.

Ma'lumot uchun:

1. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 05.06.2024 yildagi PQ–210-son qarori 3-bandiga muvofiq, Respublika idoralararo komissiyasi (1-ilova bilan tasdiqlangan) 2024 yil 1 iyulga qadar Qonun tatbiq etiladigan davlat organlari va tashkilotlarining aniq ro'yxati shakllantirilishini ta'minlash belgilangan.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 25.01.2023 yildagi "Respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatini samarali yo'lga qo'yishga doir birinchi navbatdagi tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida" gi PF–14-son Farmoni;
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 21.07.2023 yildagi "Davlat muassasalari to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida" gi 302-son qarori;
5. "Davlat mulkini boshqarish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni (09.03.2023 yildagi O'RQ-821-son);
6. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 19.11.2019 yildagi "O'zbekiston respublikasining konsolidatsiyalashgan budjeti tarkibiga kiritiladigan davlat maqsadli jamg'armalarining ro'yxatini tasdiqlash to'g'risida"gi 917-son qarori;
7. O'zbekiston Respublikasining budget kodeksi. 01.01.2014 yilda kuchga kirgan;
8. Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida O'zbekiston Respublikasining Qonuni (06.05.2014 yildagi O'RQ-370-son).

2. Ushbu Qonunning 1-moddasida manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi qonunchilik ushbu Qonun va boshqa qonunchilik hujjatlaridan iborat ekanligi, jinoyat ishlari bo'yicha sudga qadar ish yuritishni, shuningdek sud ishini yuritish chog'ida yuzaga keladigan munosabatlarni tartibga soluvchi qonunlarda manfaatlar to'qnashuvi bilan bog'liq munosabatlarni tartibga solishga oid boshqa qoidalar belgilanishi mumkin ekanligi, agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarida O'zbekiston Respublikasining manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi qonunchiligida nazarda tutilganidan

boshqacha qoidalar belgilangan bo'lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo'llanilishi belgilangan.

Bunda, manfaatlar to'qnashuviga oid munosabatlarni yana qaysi normativ-huquqiy hujjatlardan topish mumkin?

Manfaatlar to'qnashuviga oid normalar “Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasining Qonunida (03.01.2017 yildagi O'RQ-419-son), davlat fuqarolik xizmatida manfaatlar to'qnashuvi va uning oldini olishga oid qoidalar “Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasining Qonunida (08.08.2022 yildagi O'RQ-788-son), O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 14.10.2022 yildagi “Davlat fuqarolik xizmatchilari tomonidan odob-axloq qoidalariga rioya etilishini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi qarorida, davlat xaridlari jarayonida manfaatlar to'qnashuvi va uning oldini olishga oid qoidalar “Davlat xaridlari to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasining Qonunida (22.04.2021 yildagi O'RQ-684-son) va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda ham o'z aksini topgan.

Jinoyat ishlari bo'yicha sudga qadar ish yuritishni, shuningdek sud ishini yuritish chog'ida yuzaga keladigan munosabatlarni tartibga soluvchi qonunlarda manfaatlar to'qnashuvi bilan bog'liq munosabatlarni tartibga solishga oid boshqa qoidalar belgilanishi mumkin ekanligi ko'rsatilgan.

Bunda, Jinoyat protsessual kodeksida manfaatlar to'qnashuvi bilan bog'liq munosabatlarni tartibga solishga oid boshqa qoidalar belgilanishi mumkin ekanligi nazarda tutilmoqda.

Agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarida O'zbekiston Respublikasining manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi qonunchiligida nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo'lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo'llanilishi ko'rsatilgan.

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasining “O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari to'g'risida”gi Qonuni (06.02.2019 yildagi O'RQ-518-son) 2-moddasi 3-qismiga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi tomonidan ratifikatsiya qilingan xalqaro shartnomada O'zbekiston Respublikasining qonunchiligida nazarda

tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo'lsa, O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasi qoidalari qo'llanilishi belgilangan.

3. Ushbu Qonunning 3-moddasida belgilangan davlat organining yoki boshqa tashkilotning xodimi deganda kimlar nazarda tutilmoqda?

davlat organining yoki boshqa tashkilotning xodimi deganda, Qonunning 1-moddasida belgilangan davlat organlarida yoki boshqa tashkilotlarda mehnat shartnomasi (kontrakt) asosida yoxud saylab qo'yiladigan yoki tayinlanadigan lavozimlarda mehnat (xizmat) faoliyatini amalga oshirayotgan boshqaruv xodimlari tushuniladi, ya'ni mazkur Qonun talablari uning 1-moddasida belgilangan tashkilotlarning texnik va yordamchi xodimlariga nisbatan tadbiiq etilmaydi.

4. Ushbu Qonunning 3-moddasida belgilangan belgilangan ta'rifga ko'ra, mavjud va ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvi holati qanday ajratiladi?

manfaatlar to'qnashuvi deganda, shaxsning shaxsiy (bevosita yoki bilvosita) manfaatdorligi uning o'z lavozim yoki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga ta'sir ko'rsatayotgan yoxud ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan hamda shaxsiy manfaatdorlik bilan fuqarolarning, tashkilotlarning, jamiyatning yoki davlatning huquqlari, qonuniy manfaatlari o'rtasida qarama-qarshilik yuzaga kelayotgan (mavjud manfaatlar to'qnashuvi) yoki yuzaga kelishi mumkin bo'lgan (ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvi) vaziyat bo'lib, birinchi holatda ayni paytda real mavjud bo'lgan manfaatlar to'qnashuvi, ikkinchi holatda kelajakda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan potensial, ya'ni ehtimoliy manfaatlar to'qnashuviga ajratiladi.

Bunda shaxsning shaxsiy manfaatdorligi boshqa fuqarolarning, tashkilotlarning, jamiyat yoki davlatning qonuniy manfaatlariga zarar yetkazishi mumkin.

5. Ushbu Qonunning 3-moddasida belgilangan manfaatlar to'qnashuvini tartibga solish bo'yicha maxsus bo'linma sifatida davlat organlarining yoki boshqa tashkilotlarning 2 ta tarkibiy bo'linmasi, ya'ni korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo'linmalari (va) yoki kadrlar bo'linmalari ko'rsatilgan.

Bunda har ikkala tarkibiy bo'linma faoliyat yuritadimi yoki ulardan birimi? Agar tashkilot tashkiliy tuzilmasida har ikkala tarkibiy tuzilma mavjud

bo'lsa, manfaatlar to'qnashuvi bilan bog'liq vazifa va funksiyalar ular o'rtasida qanday taqsimlanadi?

manfaatlar to'qnashuvini tartibga solish bo'yicha maxsus bo'linma deganda, davlat organlarining yoki boshqa tashkilotlarning tashkiliy tuzilmasida mavjud korrupsiyaga qarshi ichki nazorat (komplaens-nazorat) bo'linmalari (va) yoki xodimlar bilan ishlashga mas'ul bo'lgan kadrlar (ya'ni inson resurslarini boshqarish) bo'linmalari nazarda tutilmoqda.

Bunda tashkilot rahbari tomonidan tashkilot xodimlari (boshqaruv) shtatlar tarkibidan va ish yuklamasi hajmidan kelib chiqib vazifalar yuklanadi. Agar tashkilotning boshqaruv xodimlari shtatlar soni ko'p va ish yuklamasi hajmi yuqori bo'lsa, shuningdek korrupsiyaga qarshi ichki nazorat (komplaens-nazorat) bo'linsi ham, xodimlar bilan ishlashga mas'ul bo'lgan kadrlar (ya'ni inson resurslarini boshqarish) bo'linmasi ham mavjud bo'lsa, manfaatlar to'qnashuvi bilan bog'liq vazifa va funksiyalar korrupsiyaga qarshi ichki nazorat (komplaens-nazorat) bo'linmalari va kadrlar (inson resurslarini boshqarish) bo'linmalari o'rtasida taqsimlanadi.

Agar tashkilotda yuqoridagi tarkibiy tuzilmalardan biri mavjud bo'lmaganda, manfaatlar to'qnashuvi bilan bog'liq vazifa va funksiyalar tashkilotda mavjud bo'lgan tarkibiy tuzilmaga (korrupsiyaga qarshi ichki nazorat (komplaens-nazorat) bo'linmalari yoki kadrlar (inson resurslarini boshqarish) bo'linmalariga yuklanadi.

6. Ushbu Qonunning 3-moddasida belgilangan shaxsiy manfaatdorlik tushunchasini batafsil tushuntirib bering?

shaxsiy manfaatdorlik deganda, davlat organining yoki boshqa tashkilotning xodimi yoxud u bilan aloqador shaxslar ushbu xodim tomonidan bevosita (to'g'ridan-to'g'ri) yoki bilvosita (boshqa shaxslar orqali) qaror qabul qilinishi yoki xodimning ushbu jarayonda boshqacha tarzda ishtirok etishi natijasida olishi mumkin bo'lgan har qanday naf yoki afzalliklar tushuniladi.

Shaxsning shaxsiy manfaatdorligi deganda, davlat xizmatchisining o'z xizmat vazifalarini holis bajarishiga ta'sir qiladigan yoki ta'sir qilishi mumkin bo'lgan, o'zi, qarindoshlari yoki unga aloqador shaxslarning moddiy yoki nomoddiy shaklida asossiz boyish (daromad olish) imkoniyati tushuniladi.

Shuni yodda tutish kerakki, davlat xizmatchisining shaxsiy manfaatdorligi boshqa shaxslar, masalan, davlat xizmatchisining do‘stlari, uning qarindoshlari foyda oladigan yoki olishlari mumkin bo‘lgan hollarda paydo bo‘lishi mumkin.

Shunga ko‘ra, ushbu sharhda "davlat xizmatchisining shaxsiy manfaati bilan bog‘liq bo‘lgan qarindoshlar va/yoki boshqa aloqador shaxslar" atamasi davlat xizmatchisining shaxsiy manfaati bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin bo‘lgan shaxslar doirasini aniqlash uchun ishlatiladi.

Manfaatlar to‘qnashuvi holatlariga davlat xizmatchisi o‘z xizmat vazifalarini bajarish jarayonida uchraydigan ko‘plab keys (vaziyat)lar mavjud. Davlat xizmatchilarining shaxsiy manfaatlari xilma-xilligini hisobga olgan holda, bunday vaziyatlarning to‘liq ro‘yxatini tuzish imkonsiz. Shunga qaramay, manfaatlar to‘qnashuvi yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan quyidagi bir qator asosiy "tartibga solish sohalarini" aniqlash mumkin:

davlat xizmatchisining shaxsiy manfaatlari bog‘langan qarindoshlari va/yoki boshqa aloqador shaxslarga nisbatan davlat boshqaruvining muayyan funksiyalarini bajarish;

boshqa pullik ishlarni bajarish;

qimmatli qog‘ozlar, bank depozitlariga egalik;

sovg‘alar va xizmatlarni qabul qilish;

mulk majburiyatlari va sud jarayoni;

sobiq ish beruvchi bilan o‘zaro munosabatlar va davlat xizmatidan bo‘shatilgandan keyin ish bilan ta‘minlash;

belgilangan taqiqlarning aniq buzilishi (masalan, rasmiy ma‘lumotlardan foydalanish, xorijiy mamlakatlardan mukofotlar, faxriy va maxsus unvonlarni olish (ilmiy unvonlardan tashqari) va boshqalar.).

7. Ushbu Qonunning 3-moddasida belgilangan yaqin qarindoshlar tushunchasini tushuntirib bering.

Bundan tashqari mazkur tushuncha Oila kodeksi, Mehnat kodeksi, Davlat fuqarolik xizmati to‘g‘risidagi Qonun va boshqa NHHlarda ham mavjud bo‘lib, mazkur tushunchani birxillashtirish lozim.

yaqin qarindoshlarga Oila kodeksining 57-moddasi (Qarindoshchilik)da ko'rsatilgan to'g'ri shajara birinchi darajadagi qarindoshlar - ota-onalar, o'g'illar, qizlar, yon shajara bo'yicha qarindoshlikning ikkinchi darajasida turadigan aka-uka va opa-singillar, shuningdek, er-xotinlar, er-xotinlarning to'g'ri shajaradagi birinchi darajadagi qarindoshlari - ota-onalari, farzandlari yon shajara bo'yicha qarindoshlikning ikkinchi darajasida turadigan aka-ukalari, opa-singillari qiradi.

Mehnat kodeksining 121-moddasi (Qarindoshlarning davlat tashkilotida birga xizmat qilishini cheklash)ga ko'ra, o'zaro yaqin qarindosh yoki quda tomondan qarindosh bo'lgan shaxslarning (ota-ona, aka-ukalar, opa-singillar, o'g'illar, qizlar, er-xotin, shuningdek er-xotinning ota-onasi, aka-ukalari, opa-singillari va farzandlari) aynan bitta davlat tashkilotida birga xizmat qilishi, agar ularning birga xizmat qilishi ulardan birining ikkinchisiga bevosita bo'ysunishiga yoki uning nazorati ostida bo'lishiga bog'liq bo'lsa taqiqlanadi. Ushbu qoidadan istisnolar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanishi mumkin ekanligi ko'rsatilgan.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 11.03.1997 yildagi "O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan normativ hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi 133-son qarori 3-ilovasida Davlat (aksionerlik) korxonalarining O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 79-moddasida (121-moddasida) nazarda tutilgan qarindosh-urug'larning, agar ularning xizmatlari ulardan birining boshqasiga bevosita bo'ysunishi yoki nazorati ostida bo'lishi bilan bog'liq bo'lsa, birga xizmat qilishlarini cheklash qoidalaridan istisno etilishi mumkin bo'lgan xodimlarning 16 ta toifasi belgilangan.

8. Ushbu Qonunning 4-moddasida manfaatlar to'qnashuvi bilan bog'liq munosabatlarni tartibga solishning asosiy prinsiplari, ya'ni qonuniylik; fuqarolarning, tashkilotlarning, jamiyatning va davlatning qonuniy manfaatlari ustuvorligi; ochiqlik va shaffoflik; xolislik; korrupsiyaga nisbatan murossasizlik kabi prinsiplar belgilangan.

Ammo, ushbu tushunchalarning mazmuni Qonunda yoritib berilmagan bo'lib, ularni tavsiflab bering.

Manfaatlar to‘qnashuvi bilan bog‘liq munosabatlarni tartibga solishda amal qilinishi lozim bo‘lgan 5 ta asosiy prinsip belgilangan bo‘lib, xususan:

qonuniylik – manfaatlar to‘qnashuvi bilan bog‘liq munosabatlarni amalga oshirishda ishtirok etadigan davlat organlari va tashkilotlari hamda ularning mas‘ul rahbar va mutaxassis xodimlari O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, ushbu Qonun va boshqa qonunchilik hujjatlari talablariga aniq rioya qilishi va ularni bajarishi shart bo‘lib, qonunchilikka aniq rioya qilishdan hamda ularni ijro etishdan chekinish qonuniylikni buzish hisoblanadi va belgilangan javobgarlikka sabab bo‘ladi.

fuqarolarning, tashkilotlarning, jamiyatning va davlatning qonuniy manfaatlari ustuvorligi – manfaatlar to‘qnashuvi bilan bog‘liq munosabatlarni amalga oshirishda ishtirok etadigan davlat organlari va tashkilotlari hamda ularning rahbar va mas‘ul xodimlari inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga rioya etishlari shart bo‘lib, inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari buzilgan taqdirda, davlat organlari va tashkilotlari hamda ularning rahbar va mas‘ul xodimlari ushbu huquqlar, erkinliklar va qonuniy manfaatlarni tiklash, yetkazilgan zararining o‘rnini qoplash hamda aybdorlarni belgilangan tartibda javobgarlikka tortish choralarini ko‘rishi shart.

ochiqlik va shaffoflik – manfaatlar to‘qnashuvi bilan bog‘liq qoidalar va tartib-taomillar manfaatdor shaxslar uchun ochiq, shaffof va tushunarli bo‘lishi hamda manfaatlar to‘qnashuvi bilan bog‘liq munosabatlarni amalga oshirishda ishtirok etadigan davlat organlari va tashkilotlari hamda ularning rahbar va mas‘ul xodimlari axborotdan erkin foydalanilishini ta‘minlashi kerak.

xolislik – manfaatlar to‘qnashuvi bilan bog‘liq qoidalar va tartib-taomillar amalga oshirishda ob‘ektiv, ya‘ni xolis yondashuv asosida bo‘lishi kerak.

korrupsiyaga nisbatan murossasizlik – korrupsiyaga nisbatan toqatsizlik, ya‘ni har qanday shart-sharoit va holatga qaramasdan uni qabul qilmaslikda ifodalanadigan korrupsiyaga qarshi “0” munosabat.

9. Qonunda manfaatlar to‘qnashuviga yo‘l qo‘yilgan holda qabul qilingan qarorlar va tuzilgan bitimlar sud tartibida haqiqiy emas deb topiladi deb

belgilangan. Ushbu norma hozirgacha qabul qilingan qarorlar va tuzilgan bitimlarga ham tadbiiq etiladimi?

Albatta. Ushbu qonun oldin manfaatlar to‘qnashuviga yo‘l qo‘yilgan holda qabul qilingan qarorlar va tuzilgan bitimlarga ham tadbiiq etiladi.

10. Davlat organlari va boshqa tashkilotlar xodimlari muayyan bir rasmiy tadbirda o‘zining nazorat qiluvchi tashkilot xodimlaridan sovg‘alar yoki xizmatlar qabul qilishi kelajakda manfaatlar to‘qnashuviga sabab bo‘lishi mumkinmi?

Qonunchilikka ko‘ra sovg‘aning qiymati bazaviy hisoblash miqdorining 4 (to‘rt) baravariga teng yoki undan ko‘p bo‘lmagan miqdorda ekanligi aniqlangan taqdirda, sovg‘a davlat fuqarolik xizmatchisida qoldiriladi va u tomonidan o‘z ixtiyoriga ko‘ra tasarruf etiladi.

11. Yaqin qarindosh bo‘lgan xodimlar bitta tashkilotda ishlashadi. Ayni paytda biri tashkilotdan xodimlarga sovg‘alar taqdim qilish, turli xil imtiyozlar belgilash, ta‘tillar bilan bog‘liq munosabatlarni boshqaradi. Ushbu holatda ehtimoliy manfaatlar to‘qnashuvi mavjudmi?

Qonunning 1-moddasida belgilangan amal qilish sohasi doirasiga kirsa, manfaatlar to‘qnashuvi deb topiladi hamda qonunda belgilangan choralar ko‘rilishiga sabab bo‘ladi.

12. Bank xodimining uning yaqin qarindoshlari ushbu bankning qimmatli qog‘ozlari, bank depozitlari yoki uning aksiyalariga egalik qilishi manfaatlar to‘qnashuviga sabab bo‘lishi mumkinmi?

Qonunning 1-moddasida nazarda tutilgan amal qilish sohasi doirasiga kirsa, manfaatlar to‘qnashuviga sabab bo‘ladi hamda bunday holatga yo‘l qo‘yilmaydi.

13. Aylanma eshik (revolving door) amaliyoti – xodim yoki rahbar o‘zining ilgari ishlagan davlat organi yoki boshqa tashkilotga yoki uning rahbari, xodimiga nisbatan muayyan vakolat, funksiyalarni belgilashda ishtirok etadi. Ushbu amaliyot manfaatlar to‘qnashuviga sabab bo‘lishi mumkinmi?

Ushbu amaliyot manfaatlar to‘qnashuviga sabab bo‘ladi.

14. Manfaatlarni to'qnashuvini oldini olishda Odob-axloq komissiyalarining roli qanday?

Davlat organi yoki boshqa tashkilot xodimi tomonidan ushbu Qonunda belgilangan talablarga rioya etilishini ta'minlash choralarini ko'radi; manfaatlarni to'qnashuvini tartibga solish yuzasidan ko'rilayotgan choralarning yetarliligi (to'g'riligi) haqidagi masalalarni ko'rib chiqadi; mavjud manfaatlarni to'qnashuvi bilan bog'liq hollar ustidan kollegial nazoratni amalga oshiradi; ushbu Qonunda belgilangan talablarning davlat organi yoki boshqa tashkilot xodimlari tomonidan buzilishlari mavjudligi (mavjud emasligi) to'g'risida xizmat tekshiruv natijalariga ko'ra xulosa chiqaradi; manfaatlarni to'qnashuvi to'g'risida xabar qilmagan, bila turib yolg'on yoki noto'g'ri axborot taqdim etgan yoxud bunday axborotni yashirgan xodimni javobgarlikka tortish haqida davlat organining yoki boshqa tashkilotning rahbariga taklif kiritadi.

15. Manfaatlarni to'qnashuvini oldini olishda maxsus bo'linmaning roli nimalarda namoyon bo'ladi?

davlat organining yoki boshqa tashkilotning xodimi tomonidan aniqlangan manfaatlarni to'qnashuvi hollari to'g'risidagi axborotni umumlashtiradi;

davlat organining yoki boshqa tashkilotning ushbu Qonun talablarini buzgan xodimiga nisbatan xizmat tekshiruvini o'tkazadi;

davlat organining yoki boshqa tashkilotning xodimlari o'rtasida manfaatlarni to'qnashuvining oldini olish yuzasidan qonunchilikka muvofiq tushuntirish ishlarini amalga oshiradi;

yehtimoliy manfaatlarni to'qnashuvi to'g'risidagi deklaratsiyalarni, shuningdek mavjud manfaatlarni to'qnashuvi to'g'risidagi xabarnomani ko'rib chiqadi, ularning natijalariga ko'ra odob-axloq komissiyasiga takliflar kiritadi;

davlat organi yoki boshqa tashkilot xodimining manfaatlarni to'qnashuvi haqidagi xabarlari munosabati bilan manfaatlarni to'qnashuvi mavjudligi yoki mavjud emasligi to'g'risida xulosa beradi;

davlat organlarida yoki boshqa tashkilotlarda aniqlangan manfaatlarni to'qnashuvi hollarini tahlil qiladi hamda ularni tartibga solish bo'yicha takliflarni ishlab chiqadi;

davlat organlarida yoki boshqa tashkilotlarda ushbu Qonun talablariga rioya etilishi holati to'g'risidagi har yilgi hisobotlarni tayyorlaydi hamda hisobotlar uning rasmiy veb-saytiga joylashtirilishini ta'minlaydi.

16. Davlat organlari va boshqa tashkilotlar xodimlari, shuningdek ularga aloqador shaxslarning o'ziga nisbatan yoki boshqa xodimlarga nisbatan manfaatlar to'qnashuvi holatlari haqida xabar bermasligi qanday huquqiy oqibatlariga olib keladi?

Qonunning amal qilish sohasida yuz bergan bo'lsa, MJTKning 193⁴-modda. Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi qonunchilik talablarini bajarmaslik sanksiyasida belgilangan javobgarlikka sabab bo'ladi.

17. Bir shaxs turmush o'rtog'i tuman hokimi lavozimiga tayinlangandan so'ng tuman tibbiy poliklinika rahbari lavozimiga tayinlangan. Mazkur shaxs tibbiy poliklinika rahbari lavozimida ishlashga haqlimi?

Mehnat kodeksining 121-moddasida o'zaro yaqin qarindosh yoki quda tomondan qarindosh bo'lgan shaxslarning (ota-ona, aka-ukalar, opa-singillar, o'g'illar, qizlar, er-xotin, shuningdek er-xotinning ota-onasi, aka-ukalari, opa-singillari va farzandlari) aynan bitta davlat tashkilotida birga xizmat qilishi, agar ularning birga xizmat qilishi ulardan birining ikkinchisiga bevosita bo'ysunishiga yoki uning nazorati ostida bo'lishiga bog'liq bo'lsa taqiqlanishi belgilangan.

18. Bir shaxs turmush o'rtog'i rahbar bo'lib ishlayotgan tashkilot bo'ysunuvidagi tashkilotning bo'lim boshlig'i lavozimida faoliyat yuritadi. Mazkur shaxs bo'ysunuv tashkilotda bo'lim boshlig'i lavozimida ishlashga haqlimi?

Mehnat kodeksining 121-moddasida o'zaro yaqin qarindosh yoki quda tomondan qarindosh bo'lgan shaxslarning (ota-ona, aka-ukalar, opa-singillar, o'g'illar, qizlar, er-xotin, shuningdek er-xotinning ota-onasi, aka-ukalari, opa-singillari va farzandlari) aynan bitta davlat tashkilotida birga xizmat qilishi, agar ularning birga xizmat qilishi ulardan birining ikkinchisiga bevosita bo'ysunishiga yoki uning nazorati ostida bo'lishiga bog'liq bo'lsa taqiqlanishi belgilangan.

19. Bir shaxs ukasi viloyat hokimligi kadrlar boshqarmasida bosh mutaxassis bo'lib ishlayotgan bir paytda tuman hokimning yordamchisi vazifasida faoliyat yuritishi qonuniymi?

Mehnat kodeksining 121-moddasida o'zaro yaqin qarindosh yoki quda tomondan qarindosh bo'lgan shaxslarning (ota-ona, aka-ukalar, opa-singillar, o'g'illar, qizlar, er-xotin, shuningdek er-xotinning ota-onasi, aka-ukalari, opa-singillari va farzandlari) aynan bitta davlat tashkilotida birga xizmat qilishi, agar ularning birga xizmat qilishi ulardan birining ikkinchisiga bevosita bo'ysunishiga yoki uning nazorati ostida bo'lishiga bog'liq bo'lsa taqiqlanishi belgilangan.

20. Bir shaxs viloyat hokimligining kadrlar boshqarmasi boshlig'i lavozimida faoliyat yuritishi bilan bir qatorda uning turmush o'rtog'i mazkur hokimlikni xo'jalik boshqarmasining texnik vazifasida ishlashi qanchalik qonunga to'g'ri keladi?

Mehnat kodeksining 121-moddasida o'zaro yaqin qarindosh yoki quda tomondan qarindosh bo'lgan shaxslarning (ota-ona, aka-ukalar, opa-singillar, o'g'illar, qizlar, er-xotin, shuningdek er-xotinning ota-onasi, aka-ukalari, opa-singillari va farzandlari) aynan bitta davlat tashkilotida birga xizmat qilishi, agar ularning birga xizmat qilishi ulardan birining ikkinchisiga bevosita bo'ysunishiga yoki uning nazorati ostida bo'lishiga bog'liq bo'lsa taqiqlanishi belgilangan.

21. Ijtimoiy masalalar bo'yicha hokim o'rinbosari ishdan bo'shatilgan keyin o'zining nazorat ob'ekti hisoblangan tashkilotlarga yoki ijtimoiy masalalar bo'yicha bosh mutaxassis yoxud yetakchi mutaxassis bo'lib ishga kirishi taqiqlanganmi?

Yo'q

22. Er-xotinning bitta tashkilotda ishlashi mumkinmi?

Mehnat kodeksining 121-moddasida o'zaro yaqin qarindosh aynan bitta davlat tashkilotida birga xizmat qilishi, agar ularning birga xizmat qilishi ulardan birining ikkinchisiga bevosita bo'ysunishiga yoki uning nazorati ostida bo'lishiga bog'liq bo'lmasa.

23. Davlat organlari va boshqa tashkilotlarda ishlovchi xodimga aloqador shaxs davlat organi nazoratida bo'lmagan tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanadi, ya'ni rahbar yoki ta'sischi hisoblanadi. Bunday holatda qanday yo'l tutish kerak?

Mazkur holat ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvi sifatida baholanadi va Qonunga muvofiq uni tartibga solish chorasini ko'rish lozim bo'ladi, ya'ni agarda Qonun bilan ta'sischiilik ushbu xodimga taqiqlangan bo'lsa, ushbu manfaatdan vos kechishi yohud DXMga ushbu faoliyatini to'xtatishga ariza berishi lozim.

Rahbarlik lavozimida faoliyat yuritish Mehnat kodeksining 432-moddasiga muvofiq o'rindoshlik asosida ishlash xodimning o'zining asosiy ishidan tashqari alohida mehnat shartnomasi shartlari bo'yicha asosiy ishidan bo'sh vaqtida boshqa muntazam haq to'lanadigan ishni bajarish ekanligi belgilangan.

Biroq, Vazirlar Mahkamasining 2012 yil 18 oktabrdagi 297-son qaroriga muvofiq davlat va xo'jalik boshqaruvi organlarida, shu jumladan o'rindoshlik asosida bir vaqtning o'zida ikkita rahbarlik lavozimini egallashga yo'l qo'yilmaydi, qonunchilikda belgilangan hollar bundan mustasno.

24. Davlat organi yoki tashkilotida ishlovchi xodim, uning yaqin qarindoshi yoki unga aloqador shaxs ushbu davlat organi yoxud tashkilotning soha jihatdan nazorat qilinadigan tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishga haqlimi.

Masalan: Qishloq xo'jaligi vazirligida ishlovchi xodim, uning yaqin qarindoshi yoki unga aloqador shaxs fermer xo'jaligi ta'sischisi yoki rahbari bo'lib ishlashi qonunga to'g'ri keladimi?

Haqli agarda qonunchilik bilan ularga ushbu faoliyat bilan shug'ullanish taqiqlanmagan bo'lsa.

Mazkur holatda ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvi holati tartibga solinishi lozim bo'ladi.

25. O'zbekiston Respublikasining "Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida"gi Qonunning 5-moddasida davlat organining yoki boshqa tashkilotning xodimga aloqador shaxslar keltirilgan bo'lib, unda faqat 3

toifadagi shaxslar sanab o‘tilgan. Shu bilan birga, amaliyotda xodimga aloqasi bor, lekin Qonunda keltirilgan toifaga tushmagan shaxslar bilan manfaatlar to‘qnashuvi vujudga kelsa, uning huquqiy oqibati qanday bo‘ladi? (Masalan qo‘shnisi, do‘sti, sinfdoshi, kursdoshi va h.k.)

Mazkur holat odob-axloq qoidalari doirasida ko‘rib chiqilib, xizmat tekushiruvi natijalaridan kelib chiqib xulosa berish mumkin.

26. O‘zbekiston Respublikasining “Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida”gi Qonunning 3-moddasida “yaqin qarindoshlar” tushunchasiga ta‘rif berilgan. Ta‘rifda onalik yoki otaliqqa hamda vasiylikka olingan shaxslar qamrab olinmagan. Ular ishtirokida manfaatlar to‘qnashuvi vujudga kelsa, uning huquqiy oqibati qanday bo‘ladi?

Oila kodeksiga muvofiq onalik yoki otaliqqa hamda vasiylikka olingan shaxslar sir saqlanishi belgilangan.

Shundan kelib chiqib, rasmiy ravishda farzandi hisoblansa, ushbu qonun doirasi bilan qamrab olinadi.

27. O‘zbekiston Respublikasining “Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida”gi Qonunni buzganlikda aybdor bo‘lgan shaxslar qanday javobgarlikka tortilishi mumkin?

Ma‘muriy javobgarlik kodeksining 1934-moddasiga muvofiq ma‘muriy javobgarlikka tortiladilar.

Qonunchilik hujjatlarida boshqa cheklovlar bo‘yicha boshqacha tartib nazarda tutilgan bo‘lsa, ushbu jazo turlari bo‘yicha javobgarlikka tortiladilar.

28. O‘zbekiston Respublikasining “Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida”gi qonunni buzganlikda aybdor bo‘lgan shaxslarning moddiy javobgarligi qanday?

Aybor shaxsdan tashkilot yoki boshqa yuridik (jismoniy) shaxslar (asosiy va qo‘shimcha javobgar bo‘lmagan) ko‘rgan zarardan kelib chiqib regress tartibida undiriladi.

29. Manfaatlar to‘qnashuvi holatlarini aniqlashda faol yordam bergan shaxslar mukofotlanish tartibi qanday?

Tashkilotning ichki idoraviy hujjatlarda belgilangan shakllarda rag'batlantiriladi.

30. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 11.03.1997 yildagi 133-son qarori 3-ilovasidagi ro'yxatning 11-bandida ko'rsatilgan "o'rmon va suv xo'jaligi mutaxassislari" jumlasini aynan qaysi lavozimlarga tegishli yoki o'rmon va suv xo'jaliklaridagi barcha lavozimlarga tegishlimi?

Xizmatchilarning asosiy lavozimlari va ishchilar kasblari klassifikatori (XALIKK-2020) davlat standartida:

4501-banda suv xo'jaligi avtomatlashtirilgan ob'ektlarini ekspluatatsiya qilish bo'yicha texnik (Texnik po ekspluatatsii avtomatizirovannykh ob'ektov vodnogo zozyaystva) mutaxassis personal toifasiga kirishi ko'rsatib o'tilgan;

4564-banda o'rmonlarning holati, ulardan foydalanish, ko'paytirish, saqlash va muhofaza qilish bo'yicha davlat nazorat inspektori (Inspektor gosudarstvennogo kontrolya za sostoyaniem, ispolzovaniem, vosproizvodstvom, oxranoy i zashchitoy lesov) mutaxassis personal toifasiga kirishi ko'rsatib o'tilgan.

31. O'zbekiston Respublikasi "Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida"gi Qonunning 7-moddasi 2-xatboshisida "Davlat organining yoki boshqa tashkilotning xodimiga aloqador shaxslar mazkur xodim mehnat (xizmat) faoliyatini amalga oshirayotgan davlat organi yoki boshqa tashkilot bilan munosabatlarga kirishganda:

shaxsiy manfaatlarini ko'zlab manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'ymasligi; ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi deklaratsiyani elektron yoki yozma shaklda to'ldirishi, unga bila turib yolg'on va noto'g'ri ma'lumotlarni kiritmasligi shart"ligi qayd etilgan.

Savol: Aloqador shaxslar qaerdan (yozma) deklaratsiya oladi va kimga yoki qaysi organga (misol uchun, tizimosti korxonasi aloqador shaxsi yuqori turuvchi vazirlikka) deklaratsiyani topshiradi? Uni kim tekshiradi (tashkilot yoki yuqori turuvchi organ)? Natijasi qanday tartibda va muddatda murojaatchiga bildiriladi?

Xodim ishlayotgan tashkilotga davlat xizmatidan foydalanish yoki oddiy murojaat qilganida ham elektron shaklda (yoki yozma shaklda) murojaatiga qo'shimcha deklaratsiya taqdim etadi. Bu qo'shimcha hujjat hisoblanmaydi. Bu ko'proq, murojaatlarda xolislikni ta'minlash uchun aniqlashtiriladigan aniq bir majburiyatlardan biri xisoblanadi.

32. O'zbekiston Respublikasi "Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida"gi Qonunining 7-moddasi 3-qismida "Davlat organining yoki boshqa tashkilotning xodimi bilan aloqador shaxslar tomonidan ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi deklaratsiyada bila turib yolg'on yoki noto'g'ri ma'lumotlar taqdim etilganligi ushbu Qonunda belgilangan huquqiy oqibatlarni keltirib chiqarishi mumkin"ligi belgilangan.

Ushbu holatda davlat xizmatchisi va aloqador shaxsga nisbatan O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi va Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi Kodeksida qanday javobgarlik nazarda tutilgan?

Mazkur holatdan kelib chiqib, faqatgian ma'muriy javobgarlik choralari ko'rilish belgilangan.

33. O'zbekiston Respublikasi "Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida"gi Qonunining 8-moddasi 1-qismi 6-xatboshisida "o'zi mehnat (xizmat) faoliyatini amalga oshirayotgan davlat organi yoki boshqa tashkilotning nazoratida bo'lgan tadbirkorlik faoliyati sub'ektining aksiyalariga yoki ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) ulushlariga egalik qilishga, shuningdek ushbu tadbirkorlik faoliyati sub'ektlarining boshqaruv organi a'zosi bo'lishga" cheklov mavjud.

Bu holatda tizimosti AJlari Kuzatuv kengashlari a'ziligiga ham cheklov o'rnatiladimi? (Kuzatuv kengashi a'zosi ham AJning yuqori boshqaruv organi hisoblanadi).

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2003 yil 22 dekabrda "Xo'jalik boshqaruv organlari tizimini takomillashtirish to'g'risida"gi PF-3366-son Farmonining 1-bandiga asosan tarkibiga kiruvchi korxonalarining xo'jalik birlashmasiga tegishli bo'lgan aksiya paketlari orqali ana shu korxonalarining xo'jalik boshqaruvini amalga oshiruvchi aksiyadorlik kompaniyalari, shu jumladan davlat-

aksiyadorlik kompaniyalari xo‘jalik birlashmalari xo‘jalik boshqaruvi organi hisoblanishi belgilangan.

Biroq, davlat boshqaruvi, shu jumladan taqsimlash vazifalari, shuningdek ularning tarkibiga kiruvchi korxonalar faoliyatiga ma‘muriy aralashuv xo‘jalik boshqaruvi organlarining vakolatiga kirmaydi.

O‘z navbatida, “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonunning 74-moddasiga muvofiq jamiyatning kuzatuv kengashi jamiyat faoliyatiga umumiy rahbarlikni amalga oshiradi.

“Davlat mulkini boshqarish to‘g‘risida”gi Qonunning 12-moddasida asosan davlat ishtirokidagi korxonalarga nisbatan bir vaqtning o‘zida ham mulkdorning, ham tartibga soluvchining vazifalarini bajarishga yo‘l qo‘yilmaydi. Ushbu holat mulkdorning vazifalarini davlat organidan Agentlikka o‘tkazish yoki mazkur korxonani tugatish yoxud tartibga soluvchining vazifalarini ushbu davlat organidan boshqa davlat organiga o‘tkazish yo‘li bilan bartaraf etishi ko‘rsatib o‘tilgan.

Manfaatlar to‘qnashuvi holati kelib chiqish holatlari mavjud bo‘lsa, albatta.

34. Bir shaxs Respublika darajasidagi davlat idorasining tarkibiy tarmog‘ida faoliyat yuritadi, uning akasi esa ushbu davlat idorasining tarkibiy tarmog‘i tomonidan nazorat qilinadigan hududiy bo‘limida ishlaydi. Ushbu holatda manfaatlar to‘qnashuviga yo‘l qo‘yilganmi?

Mazkur holatda agarda xodimlar bitta tashkilot tizimda ish faoliyatini amalga oshirayotgan bo‘lsa, albatta bu holat yuzasidan ehtimoliy manfaatlar to‘qnashuvini tartibga solish choralari ko‘rilish lozim.

35. Davlat idorasi xodimi tomonidan dehqon yoki fermer xo‘jaligi, savdo yo‘nalishidagi tadbirkorlik faoliyatini tashkil etishi qonunchilikka to‘g‘ri keladimi?

Agarda qonunchilik bilan mazkur faoliyat bilan shug‘ullanish ushbu xodimga cheklanmagan bo‘lsa.

36. Davlat idorasi xodimining yaqin qarindoshlari ushbu davlat idorasi tomonidan nazorat qilinadigan tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanishida yoki

tadbirkorlik sub'ekti xodimi bo'lib ishlashida manfaatlar to'qnashuvi mavjudmi?

Albatta yo'q.

37. Davlat idorasi rahbari bo'lgan shaxsning yaqin qarindoshlari ushbu idoraning mutaxassisi bo'lib ishlashida manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'yilganmi?

Mehnat kodeksining 121-moddasida o'zaro yaqin qarindosh yoki quda tomondan qarindosh bo'lgan shaxslarning (ota-ona, aka-ukalar, opa-singillar, o'g'illar, qizlar, er-xotin, shuningdek er-xotinning ota-onasi, aka-ukalari, opa-singillari va farzandlari) aynan bitta davlat tashkilotida birga xizmat qilishi, agar ularning birga xizmat qilishi ulardan birining ikkinchisiga bevosita bo'ysunishiga yoki uning nazorati ostida bo'lishiga bog'liq bo'lsa taqiqlanishi belgilangan.

38. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 8-bo'limiga muvofiq “yaqin qarindoshlar bu – qarindosh yoki quda tomondan qarindosh bo'lgan shaxslar, ya'ni ota-ona, tug'ishgan va o'gay aka-uka va opa-singillar, er-xotin, farzand, shu jumladan farzandlikka olinganlar, bobo, buvi, nevaralar, shuningdek er-xotinning ota-onasi, tug'ishgan va o'gay aka-uka va opa-singillari”.

Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasi “Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida”gi Qonunining 3-moddasiga ko'ra “yaqin qarindoshlar bu – ota-onalar, aka-ukalar, opa-singillar, o'g'illar, qizlar, er-xotinlar, shuningdek er-xotinlarning ota-onalari, aka-ukalari, opa-singillari va farzandlari”.

Ish faoliyati davomida “yaqin qarindoshlar” tushunchasini qo'llashda qaysi normativ-huquqiy hujjatdan foydalanish lozim bo'ladi?

“Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida”gi Qonunining 3-moddasida ushbu munosabatlarda yaqin qarindoshlar kimlar hisoblanishi belgilab berilgan.

39. O'zbekiston Respublikasi “Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida”gi Qonunining 5-moddasi uchinchi xatboshisiga muvofiq davlat organining yoki boshqa tashkilotning xodimi va uning yaqin qarindoshlari yuridik shaxsning ustav fondi aksiyalariga yoki ulushlariga egalik qilsa, o'sha yuridik shaxs davlat

organining yoki boshqa tashkilotning xodimiga aloqador shaxs hisoblanishi belgilangan.

Ushbu holatda xodim va uning yaqin qarindoshlari yuridik shaxslarning nechchi foiz ustav fondi aksiyalariga yoki ulushlariga egalik qilsa, aloqador shaxs hisoblanadi?

Nechi foizga egalik qilishidan qat'iy nazar ushbu tadbirkorlik sub'ekti xodimga aloqador shaxs hisoblanadi.

40. O'zbekiston Respublikasi "Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida"gi Qonunining 11 hamda 16-moddalari normalari o'rtasida raqobat bordek ko'rinadi.

Xususan, 11-moddaning 1-qismida davlat organi yoki boshqa tashkilot xodimi tomonidan ushbu Qonun talablariga rioya etilishi ustidan nazorat davlat organida yoki boshqa tashkilotda tuzilgan odob-axloq komissiyasi tomonidan amalga oshirilishi belgilangan.

Shu bilan birga, 16-moddaning 1-qismiga muvofiq davlat organining yoki boshqa tashkilotning rahbar xodimi hamda maxsus bo'linmaning rahbari manfaatlar to'qnashuvini tartibga solish uchun mas'ul hisoblanishi belgilangan.

Mazkur ikki norma o'rtasida farqni tushuntirib bersangiz.

Ushbu moddalarda belgilangan talablar qanday yozilgan bo'lsa, shunday tushuniladi. Bunda, 11-moddasida odob-axloq komissiyasining roli aniq belgilab berilmoqda.

41. O'zbekiston Respublikasi "Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida"gi Qonunining 18-moddasi 1-qismiga muvofiq davlat organining yoki boshqa tashkilotning xodimi shaxsga doir ma'lumotlari o'zgargan taqdirda, ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi deklaratsiyani to'ldirishi va har yili 15 yanvardan kechiktirmay maxsus bo'linmaga taqdim etishi kerakligi belgilangan.

Savol: mazkur deklaratsiya o'tgan yil uchun to'ldiriladimi yoki kelayotgan yil uchunmi?

To'ldirilayotgan kun holati bo'yicha to'ldiriladi.

42. Davlat organining mansabdor shaxsi va/yoki unga tenglashtirilgan shaxs (keyingi o‘rinlarda –mansabdor shaxs) davlat xaridlari jarayonida qaysi shaxslar ishtirok etgan hollarda qaror qabul qilishda qatnashadi?

Davlat organining mansabdor shaxsi va/yoki unga tenglashtirilgan shaxs (keyingi o‘rinlarda –mansabdor shaxs) davlat xaridlari jarayonida quyidagi shaxslar ishtirok etgan hollarda qaror qabul qilishda qatnashadi:

– mansabdor shaxsning turmush o‘rtog‘i, yaqin qarindoshi yoki turmush o‘rtog‘ining yaqin qarindoshlari bo‘lgan yakka tartibdagi tadbirkor; – mansabdor shaxsning turmush o‘rtog‘i, yaqin qarindoshlari yoki turmush o‘rtog‘ining yaqin qarindoshlari muassis (ishtirokchisi), rahbar, bosh buxgalter, kollegial organining a‘zosi bo‘lgan tashkilot;

– mansabdor shaxsning turmush o‘rtog‘i, yaqin qarindoshlari yoki turmush o‘rtog‘ining yaqin qarindoshlari oldida mulkiy majburiyatlari bo‘lgan tashkilotlar;

– mansabdor shaxsning turmush o‘rtog‘i, yaqin qarindoshlari yoki turmush o‘rtog‘ining yaqin qarindoshlari mol-mulk (sovg‘alar) yoki xizmatlarni bepul olgan tashkilot yoki yakka tartibdagi tadbirkor.

Mansabdor shaxs ushbu xarid tartib-taomilida ishtirok etishdan o‘zini o‘zi rad qilishi zarur yoki u rahbar tomonidan chetlashtirilishi mumkin.

43. Mansabdor shaxs 1-bandda keltirilgan tashkilot, yakka tartibdagi tadbirkorga nisbatan talabnoma-da’vo ishlarini amalga oshiradimi (yoki bunday ishlarni amalga oshirishda qatnashadimi)?

Mansabdor shaxs 1-bandda keltirilgan tashkilot, yakka tartibdagi tadbirkorga nisbatan talabnoma-da’vo ishlarini amalga oshiradi (yoki bunday ishlarni amalga oshirishda qatnashadi). Mansabdor shaxs ushbu xarid tartib-taomilida ishtirok etishdan o‘zini o‘zi rad qilishi zarur yoki u rahbar tomonidan chetlashtirilishi mumkin.

44. Mansabdor shaxs 1-bandda sanab o‘tilgan tashkilotlar yoki yakka tartibdagi tadbirkorlar faoliyati bilan bog‘liq masalalar bo‘yicha alohida (kollegial tuzilmalar doirasidan tashqarida) tegishli xulosa rasmiylashtiradimi?

Bunday holatlarda xodimni manfaatlar to‘qnashuvi predmeti bo‘lgan qarorlarni qabul qilishdan chetlashtirish tavsiya etiladi.

45. Moddiy resurslarni (tovarlar, ishlar, xizmatlar) xarid qilish uchun mas'ul bo'lgan mansabdor shaxslar 1-bandda sanab o'tilganlardan yetkazib beruvchilarni tanlaydimi?

Bunday holatlarda xodimni manfaatlar to'qnashuvi predmeti bo'lgan qarorlarni qabul qilishdan chetlashtirish tavsiya etiladi.

46. Mansabdor shaxs attestatsiya komissiyasining a'zosi bo'lib, u o'zining qarindoshi to'g'risida qaror qabul qilishi mumkinmi?

Ushbu qarorni qabul qiladigan attestatsiya komissiyasining yig'ilishida ishtirok etishdan chetlatish tavsiya etiladi.

47. Mansabdor shaxs davlat xizmatiga kiringunga qadar uning xodimi bo'lgan xo'jalik jamiyatining boshqaruv organlaridagi vakili hisoblanadimi?

Mansabdor shaxsning sobiq ish beruvchi bilan munosabatlari yuklangan funksiyalarning obektiv bajarilishiga ta'sir qilishi va manfaatlar to'qnashuviga olib kelishi mumkinligini baholash tavsiya etiladi.

48. Mansabdor shaxsga ulushlari (aksiyalari) belgilangan tartibda ishonchli boshqaruvga berilgan xo'jalik jamiyatining ishtirokchisi bo'lishi mumkinmi?

Bu vaziyatda xodim jamiyat to'g'risida qaror qabul qilishda ishtirok etayotganda yuzaga kelgan manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida bevosita rahbarni xabardor qilishi kerak.

49. Mansabdor shaxs mehnat (xizmat) vazifasini bajarayotganda ushbu mansabdor shaxsning shaxsiy manfaatlarini ko'zlagan shaxs uchun uchun tijorat bitimlarini tuzishda naf yoki raqobat ustunliklariga ega bo'lish imkonini beruvchi ma'lumotlardan xabardor bo'lishi to'g'rimi?

Bunday holatda, mehnat (xizmat) vazifalarini bajarish bilan bog'liq holda ma'lum bo'lgan ma'lumotlarni oshkor qilish va shaxsiy maqsadlarda foydalanishni tartibga soluvchi qoidalarni ko'rib chiqish tavsiya etiladi. Agar intizomiy huquqbuzarlik belgilari, ma'muriy huquqbuzarlik yoki jinoyat belgilarini o'z ichiga olgan qilmishni sodir etish fakti aniqlansa, bu ma'lumot xizmat tekshiruvi o'tkazish va javobgarlik choralarni qo'llash to'g'risidagi masalani hal qilish uchun rahbarga

taqdim etiladi, qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda, tegishliligi bo'yicha huquqni muhofaza qiluvchi organlarga yuboriladi.